

BAXSHICHILIK SAN'ATIDA BADIY O'QISHNING O'RNI



Sufiyev Shukurjon Rustamovich

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

“Doston ijrochiligi” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785702>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan baxshichilik san'atida badiiy o'qishning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Baxshining ijro mahorati, ovoz imkoniyatlari, matnni ifodali yetkazish usullari hamda badiiy o'qish orqali doston mazmunini tinglovchiga ta'sirchan tarzda yetkazish masalalari yoritiladi. Shuningdek, badiiy o'qishning baxshichilik an'alarini saqlash va rivojlantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: baxshichilik san'ati, badiiy o'qish, doston, og'zaki ijod, ijro mahorati, xalq an'analari.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение художественного чтения в искусстве бахши, являющемся важной частью узбекского устного народного творчества. Анализируются исполнительское мастерство бахши, выразительность чтения, вокальные возможности, а также способы художественной передачи содержания эпоса слушателям. Особое внимание уделяется роли художественного чтения в сохранении и развитии традиций бахшичества.

Ключевые слова: искусство бахши, художественное чтение, эпос, устное народное творчество, исполнительское мастерство, народные традиции.

Abstract. This article analyzes the role and significance of artistic reading in the art of bakhshi, which is an important branch of Uzbek oral folk creativity. The study examines the performer's vocal skills, expressive reading techniques, and the ability to convey the meaning and emotional depth of epics to the audience. Particular attention is paid to the importance of artistic reading in preserving and developing the traditions of bakhshi performance.

Keywords: bakhshi art, artistic reading, epic, oral folklore, performance skills, folk traditions.

Kirish. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosida baxshichilik san'ati alohida o'rin tutadi. U asrlar davomida xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, axloqiy-ruhiy qarashlari va estetik didini o'zida mujassam etib kelmoqda. Baxshichilik san'ati xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ijrochining so'zga, ohangga va badiiy ifodaga bo'lgan mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshi ijrosining ta'sirchanligi nafaqat musiqiy ohang, balki doston matnining badiiy o'qilishi orqali ham namoyon bo'ladi. Badiiy o'qish baxshining asarni tinglovchiga jonli, obrazli va hissiy jihatdan boy tarzda yetkazishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Unda ovoz tembri, pauza, urg'u, ritm va intonatsiya kabi unsurlar

muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Aynan ushbu jihatlar doston mazmunini chuqurroq anglash va tinglovchi bilan ijrochi o'rtasida ma'naviy aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va madaniy integratsiya sharoitida baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish, uning tarkibiy unsurlarini, xususan badiiy o'qishning o'rnini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki badiiy o'qish baxshichilik an'analarning uzluksizligini ta'minlash, yosh ijrochilarni tayyorlash hamda milliy madaniy merosni asrab-avaylashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada baxshichilik san'atida badiiy o'qishning nazariy va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritish maqsad qilib qo'yiladi.

Baxshi - xalq dostonlarini yoddan ijro etuvchi, ularni kuylab va ifodali tarzda yetkazuvchi ijodkor hisoblanadi. Baxshi ijrosida matnning mazmuni, qahramonlarning ruhiy holati, voqealar rivoji ovoz, ohang va dramatik vositalar orqali ochib beriladi.

Tahlil. Baxshichilik san'atida baxshilar repertuarining hajmi bir xilda bo'lmaydi va bu holat, avvalo, baxshining badiiy o'qish mahorati, hofiza quvvati hamda ijodiy tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir. Quyma quloq, zehni, yuksak xotiraga ega bo'lgan baxshilar ko'plab doston va termalarni nafaqat yod bilgan, balki ularni badiiy o'qish asosida ifodali va ta'sirchan tarzda ijro eta olganlar. Baxshi o'zlashtirgan va ijodiy tarzda kuylab kelgan barcha doston hamda termalar uning repertuarini tashkil etadi, biroq ushbu repertuarining badiiy qiymati aynan badiiy o'qish orqali namoyon bo'ladi.

Badiiy o'qish — bu adabiy matnni ifodali, ta'sirchan va mazmun-mohiyatini ochib beradigan tarzda o'qish yoki ijro etish san'atidir. U intonatsiya, pauza, urg'u, ovoz balandligi va tembr kabi vositalar orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy manbalarda Po'ltan shoirning yetmishdan ortiq, Qodir baxshining esa saksonga yaqin dostonni yod bilgani qayd etiladi. Bunday keng repertuarni saqlab qolish va uni tinglovchiga yetkazishda badiiy o'qish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki doston matnining yodda saqlanishi bilan birga, uning obrazlar tizimi, voqealar rivoji va ruhiy holatini ovoz, intonatsiya va pauzalar orqali ifodalash yuqori darajadagi badiiy o'qish mahoratini talab etadi. Shu sababli bunday baxshilar baxshi-shoir yoki shoir nomi bilan e'tirof etilgan.

Bugungi kunda baxshichilik san'ati ta'lim muassasalarida, madaniyat markazlarida o'rgatilmoqda. Yosh baxshilarni tayyorlash jarayonida badiiy o'qish texnikasi alohida fan sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki professional baxshi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- To'g'ri nafas olish texnikasi;
- Ovoz diapazonini boshqarish;
- Matnni yod olish va erkin ifodalash;
- Tinglovchi psixologiyasini his qilish

Shu bois, baxshichilik san'atini rivojlantirishda badiiy o'qish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Baxshi-shoirilar va baxshilar o'rtasidagi farq ham badiiy o'qish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Baxshi-shoirilar an'anaviy ijroga tayangan holda, badiiy o'qish orqali matnga yangicha ohang, mazmun va estetik talqin baxsh etadilar. Ular dostonni shunchaki takrorlamaydi, balki badiiy o'qish vositasida uni ijodiy qayta yaratadi. Oddiy baxshilar esa, asosan, ustozidan o'rgangan doston va termalarni an'anaviy tarzda kuylab beruvchi ijrochilar bo'lib, ularning badiiy o'qish uslubi ko'proq an'anaga sodiqligi bilan ajralib turadi. Baxshining epik mahorati masalasida folklorshunos A. Lordning "Xalq og'zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro jarayonida yaratiladi" degan fikri badiiy o'qishning mohiyatini ochib beradi. Mazkur ilmiy qarashga ko'ra, baxshi doston kuylayotgan chog'ida epos har safar yangidan yaratiladi. Bu

jarayonda badiiy o'qish asosiy vosita bo'lib, baxshi ovoz ohangi, urg'u va intonatsiya orqali doston mazmunini yangicha estetik shaklda namoyon etadi. Natijada epos yangicha mazmun, yangicha ohang va yangicha badiiy mohiyat kasb etadi. Shunday qilib, baxshichilik san'atida badiiy o'qish voqealar qatlamining keng va bepoyonligini ochib beruvchi asosiy estetik mexanizm hisoblanadi. Baxshilarning badihago'ylik san'ati, obrazlarni jonli ifodalash qobiliyati hamda doston va termalarni epik an'analarga mos holda kuylab kelishi aynan badiiy o'qish orqali amalga oshadi. Ushbu jihatlar baxshichilik san'atining uzluksizligi va bardavomligini ta'minlab, uni milliy ma'naviy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, baxshichilik san'ati taraqqiyotida badiiy o'qish yetakchi va belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Yurtimizda doston kuylash an'anasining tarixan uch asosiy yo'nalishda rivojlanganligi har bir baxshichilik maktabida badiiy o'qishning o'ziga xos shakl va uslublari mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Bulung'ur, Narpay, Nurota, Shahrisabz va Sherobod maktablarida bo'g'iz ovozga asoslangan badiiy o'qish dostonlarning ichki dramatzimini chuqur ochib bergan bo'lsa, Xorazm maktabida ochiq ovoz va ko'p cholg'uli jo'rlik badiiy o'qishning musiqiy-ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirgan. Farg'ona vodiysi baxshichiligida esa badiiy o'qish lirik ohangdorlik va ravonlik orqali tinglovchi bilan bevosita ruhiy aloqa o'rnatishga xizmat qilgan. Shuningdek, baxshilar repertuarida muhim o'rin egallagan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish" kabi dostonlarning asrlar davomida saqlanib qolishi aynan badiiy o'qish orqali ta'minlanganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, "Alpomish" dostoni baxshi ijrosida badiiy o'qish vositasida har bir davrda yangicha mazmun va badiiy talqin kasb etib, umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi yuksak epik asar sifatida shakllandi. YUNESKO tomonidan ushbu dostonning jahon madaniy merosi sifatida e'tirof etilishi ham baxshichilik san'atida badiiy o'qishning tarixiy va madaniy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Baxshichilik san'ati o'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosidir. Unda badiiy o'qish markaziy o'rin tutib, ijroning ta'sirchanligi va mazmuniy chuqurligini ta'minlaydi. Baxshi nafaqat doston aytuvchi, balki yuqori darajadagi badiiy o'qish ustasi hamdir.

Umumiy qilib aytganda, baxshichilik san'atida badiiy o'qish nafaqat doston ijrosining texnik unsuri, balki epik an'analarni saqlash, ijodiy yangilash va avloddan avlodga uzluksiz yetkazishni ta'minlovchi muhim estetik hodisadir. Baxshilarning ijro mahorati, badihago'ylik qobiliyati hamda dostonlarni obrazli va ta'sirchan ifodalashi aynan badiiy o'qish orqali namoyon bo'lib, bu san'at turining milliy va umuminsoniy madaniyatdagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Badiiy o'qish vositalari orqali doston qahramonlari jonlanadi, voqealar dramatik tus oladi va tinglovchi qalbida kuchli estetik ta'sir uyg'otadi. Shunday ekan, baxshichilik san'atini o'rganishda badiiy o'qish masalasini alohida ilmiy yo'nalish sifatida tadqiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turdimov Sh. **Baxshichilik maktablari va ularning xususiyatlari.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
2. Karimov U. **O'zbek dostonchilik san'ati: an'ana va zamonaviylik.** Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
3. Lord A. **The Singer of Tales.** – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Jo'rayev M. **Alpomish dostoni va o'zbek epik tafakkuri.** – Toshkent: Fan, 1999.
5. O'zbek xalq ijodi. **"Alpomish" dostoni.** – Toshkent: Sharq, 1998.